

O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUZEYLAR BILAN HAMKORLIK

Kabilov Sohob Safoyevich

Sultonova Nigina Sheralievna

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari

90-513-14-18

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni tarbiyalash va ularning ma'naviyatini rivojlantirishda muzeylarning o'rni haqida fikr yuritiladi. Muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar milliy g'oyani targ'ib etish asosi ekanligi ta'kidlanadi. Muzey eksponatlari asosida tarixni tushuntirish metodi tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается роль музеев в воспитании подрастающего поколения и развитии его духовности. Отмечается, что музеи и историко-архитектурные памятники являются основой для продвижения национальной идеи. Анализируется метод объяснения истории на основе музейных экспонатов.

Abstract: The article discusses the role of museums in the upbringing of the younger generation and the development of its spirituality. It is noted that museums and historical and architectural monuments are the basis for promoting the national idea. The method of explaining history on the basis of museum exhibits is analyzed.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Zero, Prezidentimiz aytganidek, hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq [Mirziyoyev 2020]. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy tarix xususan

o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini o'rganishga bo'lgan davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda Uchinchi Renessans yo'lida mamlakatimizda amalga oshiriladigan keng ko'lamli ishlarda muzeylar-milliy madaniy merosni saqlash markazi sifatida qaralmoqda.

Buxoro - asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifat va dinu e'tiqod markazlaridan biri sifatida jahonga dong'i ketgan qadimiy shahar. U o'tmishda savdo-sotiq, madaniy aloqalar jihatidan Turonu Turkistonning mashhur Balx, Hirot, Marv (Mariy), Samarqand, Termiz shaharlari qatoridan joy oladi. O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan biri bo'lgan. Buxoro ilk o'rta asrlardayoq qadimgi Turon zamini - Turkistonda, Eron-u Shom kabi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ilm fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, bu shaharda diniy va dunyoviy ilmlar (tabobat, fiqh, tarix, riyoziyot, handasa, ilmi nujum) rivoj topgan.

Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga nihoyatda boy va qiziqarli bo'lsa-da, ammo uning zarvaraqlarining ko'pgina sahifalari bizgacha to'liq saqlanmagan. Ayniqsa, shaharning uzoq o'tmishi haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda qisman uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalaridan biridir"-degan fikrlari ham bejiz emas albatta [Mirziyoyev 2017.-89]. O'zining uzoq o'tmishiga ega mamlakatimiz tarixini o'rganish va undan to'g'ri xulosa chiqarish, bugungi kunda har bir yosh avlodning burchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 10 martda Buxoro viloyatiga tashriflarida "Buxoro viloyatida 660 madaniy meros obyekti mavjud. Ularning aksariyati arxeologik obyektlar, monumental san'at asarlari, arxitektura yodgorliklaridir. Ushbu madaniy meros obyektlari xalkimizning bebaho boyligi, ularni asrash va avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimiz ekanini ta'kidlaydi"[Mirziyoyev 2017]. Bu ishlarni amalga oshirishda o'lkashunoslik muzeylarining o'rni benihoya katta.

Ma'lumki, yuksak ma'naviyatli, bilimdon kelajak avlodni tarbiyalashda o'tmish tariximiz bilan tanishtirish, milliy o'zlikni anglashda, ulardagi badiiy didni, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda, milliy davlatchiligimiz va qadriyatlarimiz targ'ibotida muzeylar va tarixiy obidalarimizning o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Muzeylarda saqlanib, namoyish etilayotgan tarixiy hujjat va xalq madaniyatiga oid ashyolar yosh avlodga ajdodlarimiz o'tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo'lgan muhabbat, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo'lish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, yoshlarni odob va axloqqa, halolligu-poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlarimizdek mohir, sabr-qanoatlilik, aqlli, adolatli, haqgo'y, mehr-muruvvatli bo'lishga chaqiradi. Madaniy merosimizni har tamonlama o'rganish jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yigit va qizlarga milliy g'urning, milliy iftixor tuyg'usining shakllanish jarayonini amalga oshiradi.

Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasini, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir.

Muzeylar faoliyatini yaqindan o'rganishda, ularning mazmun va ma'no jihatidan rang-barang turlarini ajrata bilishda, xalq ommasi orasida keng targ'ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish "Muzeysunoslik" degan keng bir sohaning vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizdagi muzeylar ishiga bo'lgan katta e'tibor mutaxassis kadrlarni yetishtirishni taqozo etadi.

"Muzeysunoslik" fani o'z oldiga madaniyat xodimlaridan muzey ishi bo'yicha yetuk ma'lumotga ega mutaxassislarni, madaniy-ma'rifiy ishlarni muzeylar faoliyati bilan chambarchas bog'lab olib boradigan kadrlarni tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan.

Muzeylar faoliyatining insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishida qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar faoliyatini o'rganish natijasida kelib chiqadigan estetik badiiy idrok etish qobiliyati yoshlarda olamni undagi mavjudodlar, voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi jarayonlarni turfa shakl-shamoyilda qayta aks ettirishga havas uyg'otadi.

Muzeylarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasidan kelib chiqqan holda uni amalga oshirish va barcha ta'lim muassasalari bilan muzeylar hamkorligini tashkil etish, muzeylarda noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish, muzey eksponatlaridan keng foydalanish yosh avlod ma'naviyati hamda ilmiy dunyoqarashini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni yig'uvchi ijtimoiy institut sanaladi. Shuning uchun ham muzey va maktablarning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga tizimli va dasturli yondashish talab etiladi. Xususan, yosh avlod, jumladan kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari tarixni o'rganishda materiallarni juda ochiq-oydin va obrazli qilib bayon etishni talab qiladi.

Shuning uchun ham ko'pgina maktab o'qituvchilari o'z darslarida ko'rgazma qurollarni mumkin qadar ko'proq qo'llanishiga harakat qilmoqdalar. Biroq ko'rgazma qurollarining qo'llanilishi ijtimoiy fanlar uchun ancha murakkab bir ishdir. Shu o'rinda savol tug'iladi: insoniyatning o'z taraqqiyotida bosib o'tgan murakkab va xilma-xil yo'lini o'quvchilarga tushuntirish, uzoq o'tmishni qanday ochib berish, bizning kunlarimizdagi voqealarni aks ettiruvchi hozirgi hayotning rang-barangligini qanday qilib ko'rsatish kerak? Bu masalada muzeylar o'qituvchilarga yordam beradi. Jonajon o'lka tarixini o'rganish borasida olib boriladigan tarbiya berishning xilma-xil vositalari orasida muzeylarga sayohat muhim o'rin egallaydi. Muzeyga ekskursiyalar qilish o'quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlarini mustahkamlash va o'lka tarixini o'rganishda katta ahamiyatga egadir [Sodiqova 1964. 5]. Ko'rgazma qurollarning birortasi o'quvchilar uchun buyumlarning asl nusxasichalik yaqqol tasavvur bera olmaydi.

Buyumlarning asl nusxasi bilan tanishish o'quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, bolalarning saviyasini kengaytiradi, ularda dunyoqarashning tarkib topishiga yordam beradi. O'quvchilar muzey zallarida mamlakatimizning eng qadimgi xalqlari hayotini, ularning mehnat faoliyatini, mustaqillik uchun olib borgan qaxramonona kurashini, san'at va madaniyatning rivojlanishini ko'rsatadigan ekspozitsiyalarni topa oladilar.

Ekskursiyadan kuzatiladigan maqsad: O'zbekiston hududida eng qadimgi zamonlardan jamiyat mavjud bo'lganligini, insonlar barpo etgan xo'jalikning rivojlanib kelganligini o'quvchilarga ko'rsatib berish.

Metodik maqsad: o'tilgan materialni takrorlash, o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash.

Metodik ko'rsatmalar: muzeyga o'quvchilar birinchi marta kelganda ularni yorqin, chiroyli, turli-tuman eksponatlar juda qiziqtiradi. O'quvchilar hamma narsani birdaniga ko'rib-bilib olmoqchi bo'lishadi, shu sababli ularning diqqati bo'linib ketadi. Ana shunday metodik xatoga yo'l qo'ymaslik uchun ekskursiya rahbari bolalarni bir yerga to'plab, dastlabki suhbatini shu yerdan boshlashi lozim. U muzeyga juda ko'p xilma-xil narsalar qo'yilganligini, ularni ko'p yillar davomida tarixchi va arxeolog olimlar mehr bilan to'plaganliklarini aytib beradi, bu eksponatlarning hammasi eng qadim zamonlardan boshlab O'zbekiston hududida yashab kelgan odamlarning hayotini ko'rsatishini ta'kidlab o'tadi. Ekskursiyani boshlashdan oldin o'quvchilarga muzeyda shovqin solish, baland ovozda gaplashish, boshqa zallarga ketib qolish va eksponatlarga qo'l tegizish mumkin emasligi haqida aytib o'tiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlar bilimini, ma'naviyatini yuksaltirishda ularga tariximizni chuqur va atroflicha o'rgatish zarur. Ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan va hozirgi kunda aziz qadamjolar-ziyoratgoxlarga aylangan bunday maskanlarda o'tkazilgan har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar kelajak avlodlar dunyoqarashini shakllantirishda ularda vatanga cheksiz muhabbat, sadoqat, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini oshirishda muhim omil hisoblanadi va ular ilmiy tafakkurini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimiz, ayniqsa, yosh avlod ona Vatanimizning yaqin o'tmishini tushunishga, murakkab, jo'shqin va jadal sur'atlar bilan davom etayotgan mamlakatimiz mustaqilligining tarix solnomasini tizimli o'rganishga, uni to'laqonli anglab yetishga, xalqimiz yaratgan buyuk bunyodkorliklar, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy sohadagi beqiyos yutuqlar bilan tanishishga katta ehtiyoj sezmoqda, Mazkur sharaflı ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa muzey xodimlarining ilmiy va kasbiy burchidir. Chunki bu millat va Vatan taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимидаги нутқи, 30.09.2020 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Т.: Ўзбекистон, 2017 Б-89
3. Барча эзгу ишларимиз халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришга йўналтирилган.//Бухоронома №22. 2017й 11 март
4. Н.Содиқова, Ю.Буряков, А.Ревес Қуйи синф ўқувчиларининг тарих музейига экскурсиялари Т.:Ўқитувчи 1964 Б-5